


SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022 - yil 1 - avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	55 549 119,0 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	51 564 116,2 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (yanvar-avgustda)	7 355 116,3 %

Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - avgust holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - avgust holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)



■ 2021-y. ■ 2022-y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022-yil 1 - avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,0** foizga oshdi





■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan o'zgarmagan



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **7,1** foizga oshdi




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,7** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




3,4 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




6,2 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




8,2 foizga kamaydi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **2,7** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **4,2** foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1 - avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 10 965 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 101 taga yoki 23,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 10 076 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 686 taga yoki 20,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 631 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,0 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra 698 tani tashkil etib, ulardan 682 tasi yoki 97,7 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 49 taga yoki 7,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida 47 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Samarqand viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
<i>Samarqand viloyati</i>	682	441	241
<i>Afg'oniston</i>	49	18	31
<i>Xitoy Xalq Respublikasi</i>	100	71	29
<i>Eron Islom Respublikasi</i>	38	23	15
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	18	14	4
<i>Janubiy Koreya Respublikasi</i>	46	31	15
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	102	65	37
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	16	11	5
<i>Turkiya Respublikasi</i>	115	68	47
<i>Amerika Qo'shma Shtatlari Boshqalar</i>	21	16	5
	177	124	53

Viloyatda 2022-yil 1-avgust holatiga xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 682 tani tashkil etadi, shundan 441 tasi qo'shma korxonalar, 241 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi. Davlatlar kesimida ko'rib chiqqanda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 115 ta, shundan 68 tasi qo'shma korxonalar, 47 tasi esa xorijiy korxonalar, Xitoy Xalq Respublikasi 100 ta, shundan 71 tasi qo'shma korxonalar, 29 tasi esa xorijiy korxonalar, Rossiya Federatsiyasi 102 ta, shundan 65 tasi qo'shma korxonalar, 37 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 – avgust holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 – avgust holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Turkiya Respublikasi 16,9 %, Xitoy Xalq Respublikasi 14,7 %, Rossiya Federatsiyasi 15,0 %, Afg'oniston 7,2 %, Janubiy Koreya Respublikasi 6,7 % va Amerika Qo'shma Shtatlari 3,1 % ga to'g'ri kelmoqda.


Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 – avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Samarqand viloyati	682	441	241
Samarqand sh	308	176	132
Kattaqo'rg'on sh	22	18	4
tumanlar:			
Oqdaryo	33	25	8
Bulung'ur	24	12	12
Jomboy	51	37	14
Ishtixon	17	11	6
Kattaqo'rg'on	16	10	6
Qo'shrabot	22	10	12
Narpay	5	3	2
Payariq	18	11	7
Pastdarg'om	34	25	9
Paxtachi	10	6	4
Samarqand	41	30	11
Nurobod	13	12	1
Urgut	54	45	9
Toyloq	14	10	4

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)





2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (28,3%), Urgut (8,5%), Pastdarg'om (8,5%), Samarqand (7,5%), Ishtixon (5,5%), Payariq (5,2%), Kattaqo'rg'on (5,1%), Oqdaryo (4,4%), Toyloq (4,3%), Bulung'ur (4,1%), Jomboy (4,0%), Kattaqo'rg'on shahri (3,2%), Narpay (3,2%), Nurobod (3,2%), Paxtachi (2,7%) va Qo'shrabot (2,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (25,1%), Pastdarg'om (8,8%), Urgut (8,1%), Samarqand (7,5%), Ishtixon (6,1%), Oqdaryo (5,3%), Kattaqo'rg'on (5,2%), Payariq (4,6%), Toyloq (4,8%), Bulung'ur (4,9%), Jomboy (4,3%), Nurobod (3,8%), Narpay (3,1%), Paxtachi (3,0%), Kattaqo'rg'on shahri (3,0%) va Qo'shrabot (2,4%) tumanlari ulushiga tegishli.







2022- yilning yanvar-iyul oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (16,4 %), Kattaqo'rg'on (12,1%), Pastdarg'om (10,1%), Payariq (9,8%), Samarqand (7,3%), Bulung'ur (7,4%), Urgut (5,8%), Jomboy (5,4%), Oqdaryo (4,8%), Ishtixon (4,7%), Toyloq (4,7 %), Narpay (3,9 %), Paxtachi (3,7 %), Qo'shrabot (2,1%), Kattaqo'rg'on shahar (1,4 %), va Nurobod (0,7 %) tumanlari ulushga ega.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022– yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi**

Tel.: 66 235-14-42